


9

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



ZAMONAVIY MENEJMENT ASOSLARI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000-	Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810000-	Qishloq xo'jaligi
Mutaxassisliklar:	70810801-	Parrandachilik
	70810802-	Qishloq xo'jalik hayvonlarining seleksiyasi va naslchilik
	70810803-	Chorvachilik
	70810803-	Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi

Samarqand-2024

Fan/modul kodi ZMA2204		O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 4	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Zamonaviy menejment asoslari	60		60	120
2.	<div>I. Fanning mazmuni</div> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga e'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish, sohada foydalaniladigan hujjatlarni rasmiylashtirish, aylanishini tashkil etish va ulardagi axborotlardan kasbiy faoliyatda hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish, strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini bilishi, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilish va boshqarish, boshqaruvning zamonaviy texnologiyalari qo'llash, loyihalarni boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirishning nazariy va amaliy ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga zamonaviy menejmentining nazariy-ilmiy asoslari, usullari, xorij tajribasi va ularni korxonalarda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini, boshqaruv nazariyasi va amaliyotining so'ngi yutuqlarini qo'llagan holda korxona faoliyati va personalni boshqarishni, faoliyatni amalga oshirish, nazorat va uning bajarilish natijasi bo'yicha xulosa qila olish bo'yicha ish rejasini tuzish va bajarishni, mahsulot, ish va xizmatlar sotishni boshqarishni, shartnomalar tuzish va bajarilishini nazorat qilishni o'rgatishdan iborat.</p> <div>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</div> <div>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</div> <div>1-mavzu. Zamonaviy menejment asoslari fanining predmeti, maqsadi va o'rganish usullari</div> <p>Menejment tushunchasi va nazariy asoslari. Qishloq xo'jaligida menejment fanining mohiyati va mazmuni. Zamonaviy menejment asoslari fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar. Menejmentning ob'yekti va sub'yekti ularning o'zaro aloqadorligi. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Zamonaviy menejment asoslari fanining o'rganish usullari.</p>				

hayvonlarining seleksiyasi va naslchilik, 70810803–Chorvachilik, 70810804–Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi mutaxassisliklari magistrilarini o‘qitishda fan dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va
statistika” kafedrasini mudiri,
i.f.b.f.d. (PhD), dotsent



M.Sh.Mardonov

2-mavzu. Zamonaviy menejmentda qo‘llaniladigan qonunlar va tamoyillar

Menejment qonunlari. Iqtisodiy qonunlar, umumiy falsafiy qonunlar, bozorni tartibga solishning umumiy qonunlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv qonunlari va tamoyillari. Menejmentning asosiy tamoyillari, boshqaruvda yakkaboshchilik tamoyili, ilmiylik tamoyili, rejalilik tamoyili, boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirib borish tamoyili, kadrlar tanlash va joylashtirish tamoyili, shaxsiy tashabbus tamoyili, javobgarlik va tavakkalchilik tamoyili.

3-mavzu. Zamonaviy menejmentning asosiy funksiyalari

Zamonaviy menejment funksiyalarining tavsifi, mohiyati, mazmuni. Menejmentni asosiy funksiyalarining tarkibiy tuzilishi. Boshqaruvning rejalashtirish funksiyasi, tashkil etish funksiyasi, muvofiqlashtirish va tartibga solish funksiyasi, nazorat funksiyasi. Qishloq xo‘jaligida menejment asosiy funksiyalarining qisqacha mazmuni.

4-mavzu. Zamonaviy menejmentda boshqaruv qarorlari

Zamonaviy menejmentda boshqaruv qarorlari va ularga qo‘yiladigan talablar, boshqaruv qarorlari tasnifi, qarorlarni ishlab chiqish va uni qabul qilish, boshqaruv qarorlarining ijrosi va nazorati. Qishloq xo‘jaligida boshqaruv qarorlarni qabul qilish bo‘yicha xalqaro tajriba. Qishloq xo‘jalik korxonalarida boshqaruv qarorlarni qabul qilish. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida boshqaruv qarorlarni qabul qilish.

5-mavzu. Zamonaviy menejmentda boshqaruv usullari

Zamonaviy menejmentda boshqaruv usullari to‘g‘risida tushuncha. Boshqaruvning tashkiliy-ma‘muriy usullari. Boshqarishning iqtisodiy usullari. Boshqarishning sotsial-ruhiy usullari. Zamonaviy menejmentda boshqaruv usullari bo‘yicha xorijiy tajriba. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida boshqaruv usullarini takomillashtirish.

6-mavzu. Zamonaviy menejment madaniyati va uslubi

Zamonaviy menejment madaniyati tushunchasi. Menejment madaniyati va uning asosiy elementlari, boshqarish xodimlari madaniyati, boshqaruv jarayonlari madaniyati, mehnat sharoiti madaniyati, hujjatlarni rasmiylashtirish madaniyati. Boshqaruv uslubi tushunchasi va xususiyatlari, qishloq xo‘jaligi korxonalarini boshqarish usullari.

7-mavzu. Qishloq xo'jaligida strategik boshqaruv va rejalashtirish

Strategiya va strategik boshqaruv tushunchasi. Strategiya turlari, strategik reja haqida tushuncha. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rejalashtirish tizimi va uslublari. Strategik rejalashtirish jarayonining ahamiyati. Ishlab chiqilgan strategiyani amalga oshirish jarayonini boshqarish. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligining biznes-rejasi, biznes-rejaning ahamiyati. Biznes-reja tuzish tartibi va uni amalga oshirish yo'llari.

8-mavzu. Qishloq xo'jaligida nizo va stressni boshqarish

Qishloq xo'jaligida nizo jarayoni va ularni kelib chiqish sabablari vaturlari. Nizoning turlari va ularning ishlab chiqarishga ta'siri. Ishlab chiqarishda nizolarni kelib chiqish sabablari. Shaxslararo va shaxs bilan guruh o'rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari. Konstruktiv va destruktiv nizolar. Nizoning funksional va disfunktsional oqibatlar. Nizo jarayonidagi bosqichlar va oqibatlar. Qishloq xo'jaligida nizolarni boshqarish va ularni bartaraf qilish yo'llari. Stress va uni boshqarish. Stress sabablari. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida nizo va stressni boshqarish.

9-mavzu. Innovatsion iqtisodiyot va innovatsion menejment

Innovatsion iqtisodiyot va innovatsion menejmentning mazmuni va mohiyati, innovatsion menejmentning asosiy tamoyillari. Innovatsion salohiyat. Innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari. Texnologik va notexnologik innovatsiyalar. Innovatsiyaviy menejmentning nazariy-metodologik asoslari. Innovatsiyaviy strategiyani ishlab chiqish va tanlashning mohiyati. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida innovatsion tadbirlarni amalga oshirish.

10-mavzu. Zamonaviy menejment samaradorligini baholash

Samara va samaradorlik tushunchalari. Iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik tushunchalari. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. Menejmentning samaradorlik mezonlari. Menejment tizimning iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. Menejmentning iqtisodiy samaradorligini oshirish, rahbar xodimlarning boshqarish samaradorligini oshirish tadbirlari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Zamonaviy menejment asoslari fanining predmeti, maqsadi va o'rganish usullari
2. Zamonaviy menejmentda qo'llaniladigan qonunlar va tamoyillar

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori A.I. Alikulov tomonidan 70810801–Parrandachilik, 70810802–Qishloq xo'jalik hayvonlarining seleksiyasi va naslchilik, 70810803–Chorvachilik, 70810804–Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi mutaxassisliklari uchun "Zamonaviy menejment asoslari" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Zamonaviy menejment asoslari" fani muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida menejmentning mohiyati va funksiyalarini, menejment qonunlari va tamoyillari, xo'jalik faoliyati jarayonida menejerlar oldida turgan muammolar yechimi, menejment boshqaruvining o'ziga xos jihatlari o'rgatishda "Zamonaviy menejment asoslari" fani alohida o'rin tutadi. Bu fanni o'rganishi natijasida talabalarda iqtisodiyotda zamonaviy menejmentning hozirgi holati, rivojlanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini o'rganib, korxonalarda loyihalarni moliyalashtirish jarayonini boshqarish, investitsion faoliyatni boshqarish va loyiha samaradorligini baholash bo'yicha bilim olib, ko'nikma hosil qiladilar va malaka shakllantiriladi.

"Zamonaviy menejment asoslari" fani dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki, fan dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi. Fan dasturi o'z ichiga 10 ta mavzuni qamrab olib, zamonaviy menejment asoslari fanining predmeti, maqsadi va o'rganish usullari, zamonaviy menejmentda qo'llaniladigan qonunlar va tamoyillar, zamonaviy menejmentning asosiy funksiyalari, Zamonaviy menejmentda boshqaruv qarorlari, zamonaviy menejmentda boshqaruv usullari, zamonaviy menejment madaniyati va uslubi, qishloq xo'jaligida strategik boshqaruv va rejalashtirish, qishloq xo'jaligida nizo va stressni boshqarish, innovatsion iqtisodiyot va innovatsion menejment, zamonaviy menejment samaradorligini baholash kabi mavzular magistr'larga xalqaro talablarga mos keladigan nazariy bilimlarini berish hamda ularda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Umuman olganda, "Zamonaviy menejment asoslari" fan dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, undan 70810801–Parrandachilik, 70810802–Qishloq xo'jalik

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasini professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov tomonidan "Zamonaviy menejment asoslari" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

"Zamonaviy menejment asoslari" fani mutaxassislikni shakllantiruvchi fanlar qatoriga kirib, bunda zamonaviy menejmentning nazariy-ilmiy asoslari, usullari, xorij tajribasi va ulami korxonalarda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini, boshqaruv nazariyasi va amaliyotining so'ngi yutuqlarini qo'llagan holda korxona faoliyati va personalni boshqarishni, faoliyatni amalga oshirish, nazorat va uning bajarilish natijasi bo'yicha xulosa qila olish bo'yicha ish rejasini tuzish va bajarishni, mahsulot, ish va xizmatlar sotishni boshqarish bo'yicha shartnomalar tuzish va bajarilishini nazorat qilishni, zamonaviy menejment boshqaruvining o'ziga xos jihatlari bo'yicha bilim olib, ko'nikma hosil qiladilar va malakasi shakllantiriladi.

"Zamonaviy menejment asoslari" fani magistratura mutaxassisligining 70840101-Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash, 70840102-Veterinariya jarrohligi, 70840103-Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi, 70840104 - Veterinariya akusherligi va hayvonlarning ko'paytirish biotexnikasi, 70840105- Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi, 70840106-Kinologiya va it kasalliklari, 70840107-Trening va ot kasalliklari, 70840108 - Baliq kasalliklari, 70840109-Asalari kasalliklari, 70840110 - Parranda kasalliklari, 70840111-Favqulotda vaziyatlarda veterinariya nazorati va jamoat salomatligini saqlash, 70840301-Veterinariya sanitariyasi, veterinar-sanitarlik ekspertizasi va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash gigiyenasi, 70840302 - Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi va immunologiyasi, 70840304-Hayvonlar fiziologiyasi va biokimyosi mutaxassisliklariga mo'ljallangan bo'lib, o'quv rejada 120 soat, shu jumladan, 20 soat ma'ruza, 40 soat amaliy dars va 60 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan bo'lib, majburiy fanlar blokidan o'rin olgan.

Ushbu fan bo'yicha tuzilgan fan dasturi magistrlar bilishi, ko'nikma hosil qilishi va malakaga ega bo'lishini ta'minlaydigan tegishli mavzularni qamrab olgan. Mavzularning mazmunidan ko'rinib turibdiki, ular fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilgan bo'lib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi.

Mazkur fan dasturi "Zamonaviy menejment asoslari" fani bo'yicha magistrantlar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda mazkur fan dasturi qo'yilgan talablarga mos holda tayyorlangan bo'lib, shu dastur asosida 70840101-Hayvonlarga tashxis qo'yish va

3. Zamonaviy menejmentning asosiy funksiyalar
4. Zamonaviy menejmentda boshqaruv qarorlari
5. Zamonaviy menejmentda boshqaruv usullari
6. Zamonaviy menejment madaniyati va uslubi
7. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari
8. Qishloq xo'jaligida strategik boshqaruv va rejalashtirish
9. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini boshqarish
10. Qishloq xo'jaligida moliyaviy munosabatlarini boshqarish
11. Qishloq xo'jaligida infratuzilma sohalarini boshqarish
12. Qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni tashkil etish
13. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni boshqarish
14. Menejmentda axborot va kommunikatsiya
15. Qishloq xo'jaligida motivlashtirish
16. Qishloq xo'jaligida nizoni boshqarish
17. Qishloq xo'jaligida stressni boshqarish
18. Qishloq xo'jaligida tavakkalchilikni boshqarish
19. Innovatsion iqtisodiyot va innovatsion menejment
20. Zamonaviy menejment samaradorligini baholash

Amaliy mashg'ulotlar auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Zamonaviy menejmentda qo'llaniladigan qonunlar va tamoyillar, asosiy funksiyalari
2. Zamonaviy menejmentda boshqaruv qarorlari va boshqaruv usullari
3. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari
4. Qishloq xo'jaligida strategik boshqaruv va rejalashtirish
5. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini boshqarish
6. Qishloq xo'jaligida moliyaviy munosabatlarini boshqarish
7. Qishloq xo'jaligida infratuzilma sohalarini boshqarish
8. Qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni tashkil etish
9. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni boshqarish
10. Menejmentda axborot va kommunikatsiya
11. Qishloq xo'jaligida motivlashtirish
12. Qishloq xo'jaligida nizo va stressni boshqarish

	<p>13. Qishloq xo'jaligida tavakkalchilikni boshqarish</p> <p>14. Innovatsion iqtisodiyot va innovatsion menejment</p> <p>15. Zamonaviy menejment samaradorligini baholash</p> <p>Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • zamonaviy menejmentning mohiyati va funksiyalarini, menejment qonunlari va tamoyillari, xo'jalik faoliyati jihatidan menejerlar oldida turgan muammolar yechimi, menejment boshqaruvining o'ziga xos jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • zamonaviy menejmentda rejalashtirishning o'rni va elementlarini, pul oqimlarini boshqarish xususiyatlarini, qarorlar qabul qilishda moliyaviy risklar ta'sirini baholashni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) • korxonalarda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish va loyihalarni moliyalashtirish jarayonini boshqarish, investitsion faoliyatni boshqarish va loyiha samaradorligini baholash malakasiga ega bo'lishi kerak. (malaka)
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi. Darslik. –Toshkent: “Tafakkur-Bo'stoni”, 2013.</p> <p>2. Yo'ldoshev N.K., G.E.Zoxidov. Menejment. Darslik. –Toshkent: “O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati”, 2018.</p> <p>3. Umarxodjayeva M.G., Yaxyayeva I.K. Ishlab chiqarish menejmenti. –Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2019.</p>

	<p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida. 2023-yil 28-fevral, PF-27-son.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. –Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. –Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</p> <p>7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.</p> <p>8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-187-son qarori.</p> <p>10. Samatov G.A., Rustamova I.B., Sheribaeva U.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. –Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-manba ijodiy uyi, 2012.</p> <p>11. Байков Е.А. Теория менеджмента: Учебник. Теоретические основы менеджмента. – Санкт-Петербург: СПбГИКит, 2017.</p> <p>12. Ziyaviddinova N.M., O'rinov Y.M., Xayitov Sh.N. Menejment. O'quv qo'llanma. –Toshkent: “Tafakkur-Bo'stoni”, 2012.</p> <p>Axborot manbaalari</p> <p>13. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi portali</p>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil “2”-avgustdagi “12-sonli bayoni bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>A.I. Alikulov – SamDVMCHBU, “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. Mirzayev K.J.- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası mudiri, i.f.d., professor</p> <p>2. Mardonov M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası mudiri i.f.b.f.d. (PhD), dotsent</p>